



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/8



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 8-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 8 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK OMILLARI

mayor F.B.Matyakubova

IIV Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar sikli o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlari malakasini oshirish tizimida ta'lim sifatini ta'minlashning dolzarb masalalari yoritilgan. Ta'lim jarayonini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, malaka oshirish, kompetensiya, ichki ishlar organlari, tashkiliy omillar, pedagogik shart-sharoitlar, uzluksiz ta'lim.

Аннотация: В данной статье освещены актуальные вопросы обеспечения качества образования в системе повышения квалификации сотрудников органов внутренних дел. Научно проанализированы организационно-педагогические факторы совершенствования образовательного процесса, а также выдвинуты комплексные подходы, направленные на развитие профессиональных компетенций сотрудников.

Ключевые слова: качество образования, повышение квалификации, компетенция, органы внутренних дел, организационные факторы, педагогические условия, непрерывное образование.

Abstract: This article highlights pressing issues in ensuring the quality of education within the professional development system for internal affairs personnel. The organizational and pedagogical factors involved in enhancing the educational process are scientifically analyzed, and comprehensive approaches aimed at developing the professional competencies of officers are proposed.

Keywords: quality of education, professional development, competence, internal affairs bodies, organizational factors, pedagogical conditions, lifelong learning.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish bevosita ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga chambarchas bog'liq. Shu bois, xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda [1–3].

Zamonaviy malaka oshirish tizimi shunchaki nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki tinglovchilarda nostandart va ziddiyatli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Ichki ishlar organlari xodimlarining, ya'ni katta yoshli insonlarning ta'limi va malaka oshirish masalalari ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, M.S.Knowlesning andragogik yondashuvi katta yoshli kishilar ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, ularning boy hayotiy va kasbiy tajribasiga tayanish zaruratini chuqur ilmiy asoslab beradi [6].

Shuningdek, OECD, UNESCO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning ta'lim sohasidagi xalqaro hisobotlarida kompetensiyaviy yondashuvning o'quv jarayoni sifatini ta'minlashdagi



markaziy o'рни alohida ta'kidlangan [4, 5]. Ushbu yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlari uchun amaliyotga yo'naltirilgan, interfaol va muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda ancha yuqori pedagogik samaradorlik ko'rsatadi.

Mazkur maqolani yozish jarayonida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash hamda baholash maqsadida majmuaviy yondashuv qo'llanildi. Majmuaviy yondashuvlar tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, modellash va ekspert baholash usullarini o'z ichiga oladi. Empirik o'rganishlar davomida xodimlarning o'quv jarayonidagi faolligi, kognitiv ehtiyojlari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari ko'zdan kechirildi. Shuningdek, amaldagi o'quv dasturlari va o'quv-metodik ta'minotning bugungi kun talablari hamda ilg'or xorijiy tajribalarga mosligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining nazariy va amaliy tajribalari shuni ko'rsatadiki, faqatgina tashkiliy va pedagogik omillarning uzviy integratsiyasi orqaligina ta'lim sifatini keskin oshirishga erishish mumkin. Tashkiliy omillar sirasiga zamonaviy moddiy-texnik bazani yaratish, o'quv jarayonini to'liq raqamlashtirish va yuqori malakali professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish kiradi. Pedagogik omillar esa o'z navbatida interfaol o'qitish metodlari, bevosita amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan o'quv dasturlari va har bir tinglovchining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olishni qamrab oladi. Nazariy va amaliy bilimlarning o'zaro birgalikda harakat qilishi xodimlarning kasbiy tayyorgarligini sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Mazkur maqolani yozish natijasida olingan xulosalar va ilg'or tajribalar asosida ichki ishlar organlari xodimlari malakasini oshirishda ta'lim sifatini kafolatlashning yaxlit "Tashkiliy-pedagogik modeli"ni ishlab chiqish tizimidagi xodimlarning o'z kasbiga sadoqat tuyg'usini yanada oshishida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tizimli model o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan beshta qismdan iborat. Bular quyidagilar:

- maqsadli qism – malaka oshirish jarayonining bosh strategik maqsadi va kutilayotgan yakuniy natijalarni (zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish) belgilab beradi.

- tashkiliy qism – o'quv jarayonini samarali boshqarish, infratuzilma, moddiy-texnik va axborot resurslari ta'minotini o'z ichiga oladi.

- pedagogik qism – ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, shakl va vositalarini, shu jumladan raqamli innovatsion ta'lim texnologiyalarini qamrab oladi.

- baholash qismi – tinglovchilarning bilimi va amaliy ko'nikmalarini monitoring qilish, o'zlashtirish darajasini aniq mezonlar asosida obyektiv baholash tizimidan iborat.

- natijaviy qism – o'quv jarayonining yakuniy samaradorligini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilish hamda tajribani amaliyotga keng joriy etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlari malakasini oshirish tizimida ta'lim sifatini ta'minlash ko'p qirrali va uzluksiz jarayon bo'lib, u tizimdagi barcha tashkiliy hamda pedagogik omillarning mutanosib rivojlanishini talab etadi. Ilmiy maqola asosida ishlab chiqilgan ushbu model tinglovchilarning o'zgaruvchan kasbiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga, ularning kundalik tezkor-xizmat faoliyatidagi professionalligini va qaror qabul qilish samaradorligini oshirishga amaliy yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur modelni ichki ishlar organlari ta'lim muassasalari amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish ta'lim sifatini oshirishga turtki bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR





1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-637-son. Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Technology in education: A tool on whose terms? – Paris, 2023.
5. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Knowles, M. S., Holton III, E., Swanson, R. A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development (9th ed.). – Routledge, 2020.

